BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Boxtiyorova Yulduz Rashid qizi
Termiz davlat pedagogika instituti,
70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati, mazmuni va samarali usullari yoritiladi. Maktab yoshidagi bolalarda vatanparvarlik hissini shakllantirish milliy qadriyatlarni singdirish, tarixiy qahramonlarimiz merosini o'rganish va amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilarning ushbu jarayondagi o'rni va samaradorlikni oshirish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, o'qituvchi roli, yosh avlod, pedagogik metodlar.

Abstract: This article describes the importance, content and effective methods of educating elementary school students in the spirit of patriotism. It is analyzed that the formation of a sense of patriotism in school-aged children is carried out through the inculcation of national values, the study of the heritage of our historical heroes, and practical training. Also, the role of teachers in this process and ways to increase efficiency will be discussed.

Key words: Primary education, patriotic education, national values, education, teacher's role, young generation, pedagogical methods.

Аннотация: В данной статье описаны значение, содержание и эффективные методы воспитания учащихся младших классов в духе патриотизма. Анализируется, что формирование чувства патриотизма у детей школьного возраста осуществляется посредством привития национальных ценностей, изучения наследия наших исторических героев, практической подготовки. Также будет обсуждаться роль учителей в этом процессе и пути повышения эффективности.

Ключевые слова: Начальное образование, патриотическое воспитание, национальные ценности, образование, роль учителя, молодое поколение, педагогические методы.

Kirish: Boshlang'ich ta'lim bosqichi inson shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib,

aynan shu davrda o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Vatanparvarlik – bu shaxsning o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, sadoqati va uni himoya qilishga tayyorligi bilan ifodalanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik holatdir.[1] [1]Ushbu tuyg'uni shakllantirish

[1] O'ktamova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash // Inter Education & Global Study. – 2024. – №2. – B. 44–52..

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

jarayoni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim bilan tarbiya uzviy olib boriladi". Ushbu tamoyilga muvofiq, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani haftasiga ikki soatdan o'qitilishi belgilangan.[2][2] Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda o'tkazilgan so'rovnomada boshlang'ich sinf o'quvchilarining 85% Vatan haqida yetarli tasavvurga ega emasligi aniqlangan. Bu esa ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.[3] Shu bois, ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik usullari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar va tarixiy merosimizni o'quvchilarga yetkazish orqali ularning Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritilgan ilmiy manbalarda bu tushuncha shaxsning o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, sadoqati va uni himoya qilishga tayyorligi bilan izohlanadi. Shuningdek, vatanparvarlik tuyg'usi insonning milliy qadriyatlar, madaniy meros va tarixiy an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ham o'z ichiga oladi. Atoqli fransuz adibi Viktor Hyugoning: "Maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek gap",- degan hikmatli iborasini misol keltirdi. Bu nima degani? Maktab, talim, tarbiya bor joyda bolalar yomon yo'lga kirmaydi, jinoyat sodir etmaydi. Demak, qamoqxonalarga zaruriyat qolmaydi[4] [3]

Ilmiy manbalarda Vatanparvarlik tushunchasining turli izohlari mavjud. Vatanparvarlik -Vatan osoyishtaligi, ota-ona, El-yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash,himoya qilish uchun jismoniy va manaviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrori bilan puxta qo'rollanish, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishdir.[5] Haqiqiy vatanparvar u qaerda yashamasin, Vatanning yaxshi kunida ham, yomon kunida ham uni tark etmaydi, u bilan birga bo'ladi.[6] Vatanparvar inson g'iybat, loqaydlik, xiyonat, sotqinlik, illatchilik, mahalliychilik kabi illatlaridan yiroqdadir.[7] Bulardan ko'rinib turibdilki, vatanparvarlik tushunchasiga yagona yondashuv yo'q, u yoshlar tarbiyasining barcha jihatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shularga asoslansak, vatanparvarlik -yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emasekan. Bu juda katta his-tuyg'udir. Bu -vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotish demakdir. Hozirgi kunda eng katta muammo bo'lmish butun dunyo o'rgimchak to'riga qarshi kurashish bizning oldimizdagi eng dolzarb mavzudir. Aynan mana shunga qarshi kurashish uchun yoshlarimizni chin insoniy fazilatlar bilan tarbiyalab, vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ularini chuqur singdirishimiz kerak. Aynan vatanparvarlik kabi, chin insoniy fazilatlarni, maktabda fanlarni o'qitishda, xususan tarbiya fanini, ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda singdirib borishimiz kerak. Ana o'shanda o'quvchilarimiz ongida bo'shliq qolmay, kelajakda Vatanga ulkan hissasi tegadigan kadrlar bo'lib yetishadi.

Vatanni muhofaza qilish, uni bir hovuch tuprog'ini ko'z qorachig'iday asrab avaylash unda yashovchi har bir kishining burchi hisoblanadi. Shunday ekan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanga bo'lgan muhabbat hissini yanada oshirish zarur.

---

[2]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston-2030 strategiyasidan.(lex.uz)

[3] Pierre Larousse, Grand dictionnaire universel du XIXe siècle, "École" (1870), "Prison" (1875) maqolalari; ibora Louis Jourdan nomi bilan qayd etilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. M.A.O'ktamovna maqolasida
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston — 2030" strategiyasidan.(lex.uz)
3. Kun.uz yangiliklaridan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 -avgust kuni bo'lib o'tgan xalq talim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi maruzasi (https://uza.uz/uz/society/tarbiya-biz-uchun-yo-hayot-yo-mamot-yo-najot-yo-halokat-yo-s-04-09-2019).
5. Mustaqillik: Izohli, ilmiy-ommabop lug'at, Toshkent, 1998, 34-bet.
6. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi.Toshkent, 1997, 152-bet.
7. Musurmonova O. Oila manaviyati.T., 1999, 120-121 betlar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.